

SSSR – AQSh MUNOSABATLARI HORIJIY ILMIY ADABIYOTLARDA (INGLIZ ZABON ASARLAR ASOSIDA)

Umarov.S.Ya.

Sovet-Amerika munosabatlari ingliz zabon mualliflar tomonidan ham batafsil o'rganib kelinmoqda. Ingliz tilida yaratilgan asarlarning asosiy qismi AQSh va Buyuk Britaniya mualliflari tomonidan yaratilgan asarlar hisoblanadi. Shu boisdan ham bu asarlarda munosabatlar asosan AQSh va Buyuk Britaniya tarixchilari nuqtayi nazaridan yozilgan.

Ingliz tilida chop etilgan asarlari orqali biz ikkinchi jahon urushidan keying Sovet-Amerika munosabatlarini obektiv baholashga va Sho'rolar hamda Rossiya mualliflari bergan fikrlarini qiyosiy tahlil qilishda muhim omil bo'ladi.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari ochib berilgan asarlar ichida ingliz zabon muallif Richard Krockatning *“The United States and the Cold War 1941-53”*¹ (“Qo'shma Shtatlar va Sovuq urush 1941 - 53”) asarida ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlari yoritilib berilgan. Asarning birinchi bobi *“Perspectives on the Cold War”* (“Sovuq urushdagi qarashlar”) deb nomlangan. Uning birinchi paragrafi *“Historians and the Cold War”* (“Tarixchilar va sovuq urush”) deb nomlanib, unda tarixchilarning “sovuq urush” haqidagi qarashlari aks etgan. Mazkur bobning ikkinchi paragrafi *“The American and Soviet Foreign Policy Traditions”* (“Amerika va Sovet tashqi siyosati an'analari”) deb nomlanib, unda AQSh va Sovet ittifoqining tashqi siyosatining an'analari ochib berilgan².

Asarning ikkinchi bobi *“Endings and Beginnings 1941-1946”* (Nihoya va boshlanish 1941-1946) deb nomlanadi. Mazkur bobda muallif ikkinchi jahon urushi davrida ittifoqchilarga aylangan ikki davlatning bir – biriga qarshi tomonlarga aylanish jarayonini ochib bergan. Asarning uchinchi bobi *“Containment and the Division of Europe”* (“Tiyib turish va Yevropani bo'linishi”) bobida bo'lsa muallif Trumen doktrinasi, Marshall rejasi, Yevropani bo'linishi

¹ Crockatt R. The United States and the Cold War 1941-53. London 1989.

² Crockatt R. O'sha asar. p.5.

hamda NATO tuzilishi oqibatida mintaqaning harbiylashtirilishi masalalariga to'xtalib o'tgan³.

Asarning so'nggi "*Cold War in the Far East*" ("Sovuq urush" Uzoq Sharqda") bobida muallif Makartizm va Uzoq Sharqdagi o'zgarishlar, Xitoy, Yaponiya masalalariga hamda Koreya urushiga to'xtalib o'tgan⁴.

Ingliz zabon muallif Richard Krockatning navbatdagi asari "*The fifty years war. The United States and the Soviet Union in world politics, 1941-1991*"⁵ ("Ellik yillik urush. Qo'shma Shtatlar va Sovet Ittifoqi jahon siyosatida, 1941-1991") hisoblanadi. Mazkur asar yuqorida to'xtab o'tilgan asarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Mazkur asar ikki marta chop etilgan. Bir marta Londonda, ikkinchi bor Nyu Yorkda. Shu boisdan ham mazkur asar ikkinchi jahon urushidan keyingi Sovet – Amerika munosabatlarini yoritishdagi obektivlik va haqqoniylikni baholashda dastur ul amal vazifasini bajaradi desak xato bo'lmas.

Richard Krockatning ushbu asari VI bobdan iborat bo'lib, birinchi bobi "*Perspectives*" ("Qarashlar") deb nomlanib, unda ellik yillik urushning muqaddimasi⁶ va Amerika Qo'shma Shtatlari hamda Sovet Ittifoqining tashqi siyosati an'analari ochib berilgan⁷. Asarning ikkinchi bobi *The emergence of a bipolar world, 1941-1953* (Ikki qutbli dunyoning qaror topishi, 1941- 1953) deb nomlanib, bipolyar dunyoning shakllanishi va «sovuq urush»ning yuzaga kelishi masalalariga to'xtalib o'tilgan. Mazkur bobning dastlabki paragraflarida kuchlar nisbati⁸, urush davridagi ittifoqchiliklarning parchalanishi⁹, ichki siyosat va xalqaro nizolarga to'xtalgan¹⁰. Keyingi paragraflarda bo'lsa, sovuq urushning kelib chiqishi haqidagi qarashlarga¹¹, tiyib turish va Trumen doktrinasi, Marshall rejasi,

³ Crockatt R. O'sha asar. p.56.

⁴ Crockatt R. O'sha asar. p.136.

⁵ Crockatt R. *The fifty years war. The United States and the Soviet Union in world politics, 1941–1991*. London and New York. 1995, 2002. p. 440.

⁶ Crockatt R. O'sha asar. p. 3.

⁷ Crockatt R. O'sha asar. p. 15.

⁸ Crockatt R. *The fifty years war. The United States and the Soviet Union in world politics, 1941–1991*. London and New York. 1995, 2002. p. 39.

⁹ Crockatt R. O'sha asar. p. 46.

¹⁰ Crockatt R. O'sha asar. p. 58.

¹¹ Crockatt R. O'sha asar. p. 64.

Germaniya va Yevropani taqsimlanishi¹² hamda Osiyodagi urushdan keyingi holatlarga va Koreya urushigacha bo'lgan davrga to'xtalib o'tgan¹³.

Asarning uchinchi bobi “*Globalism and the limits of bipolarity*”¹⁴ (Globalizm va ikki qutbli dunyo chegaralari) deb nomlanib, unda 1953 – 1964 yillarda ikki davlat o'rtasidagi qarama – qarshilikning yuzaga kelishi, kuchayishi hamda ikki davlatning yadro quroli borasidagi strategiyasi masalasiga to'xtalib o'tilgan.

Mazkur asarning to'rtinchi bobi “*Detente and its limits, 1965-1981*” (“Detant” va uning chegaralari, 1965-1981”) deb nomlanib, unda detant davrining yuzaga kelishi, Vetnam urushi, detent davrining inqiroziy holati masalalari ochib berilgan¹⁵. Asarninig oxirgi bobi “*Cold war versus international politics: the denouement, 1981–1991*” (“Sovuq urush” xalqaro siyosatdagi qarama – qarshilik sifatida: natijalar, 1981 – 1991”) deb nomlanadi. Unda Reyganamizm va kommunizmning ko'lam, M.S.Gorbachyov va dunyodagi yangi tartibsizliklar ochib berilgan¹⁶.

Ushbu asarning ko'plab o'rinlarida Sovet – Amerika munosabatlarining buzilishini asosiy aybdori sifatida Sovet davlatini ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin. Bu jihatdan mazkur muallif Sovetlar davri mualliflariga qarshi fikrda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

1992-yil nashr etilgan Amerika tarixchisi Jon Levis Gaddisning «*The United States and the End of the Cold War: Implications, Reconsiderations, Provocations*»¹⁷ (“Qo'shma Shtatlar va “Sovuq urush”ning tugashi: oqibatlar, qaytarilishlar, fitnalar”) kitobida ham munosabatlar ochib berilgan. Mazkur asar 11 bobdan iborat bo'lib, uning birinchi bobi “*The American foreign policy style in the twentieth century*” (XX asrda Amerika tashqi siyosati usullari) deb nomlanib,

¹² Crockatt R. O'sha asar. p. 76.

¹³ Crockatt R. O'sha asar. p. 37-107.

¹⁴ Crockatt R. O'sha asar. p. 111-199.

¹⁵ Crockatt R. O'sha asar. p. 203-301.

¹⁶ Crockatt R. O'sha asar. p. 301-369.

¹⁷ Gaddis John Lewis. The United States and the End of the Cold War: Implications, Reconsiderations, Provocations. 1992. p.3.

Amerikaning bu davrdagi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va Sovet ittifoqiga nisbatan yuritgan siyosati ochib berilgan.

Asarning ikkinchi bobi "*The objectives of containment*"¹⁸ ("Tiyib turishning maqsadi") deb nomlangan bo'lib, unda ikkinchi jahon urushidan keyin dunyoda Sovet – Amerika munosabatlarida ro'y bergan tiyib turish holatining yuzaga kelishi masalalariga to'xtalib o'tgan.

Asarning uchinchi bobi "*Morality and the American experience in the cold war*" ("Axloqiylik va Sovuq urushda Amerika amaliyoti") deb nomlangan. to'rtinchi bobi bo'lsa, "*The unexpected John Foster Dulles*" ("Kutilmagan Jon Foster Dallas"), beshinchi bobi "*Intelligence, espionage, and Cold War history*" ("Razvitka, ayg'oqchilik va "Sovuq urush" tarixi"), oltinchi bobi "*The essential relevance of Nuclear weapons*" ("Yadroviy qurol dolzarb bo'lishi kerak"), yettinchi bobi "*The unexpected Roland Reagan*" ("Kutilmagan Ronald Reygan"), sakkizinchi bobi "*How the Cold War might end: an exercise in faulty prediction*" ("Qanday qilib Sovuq urush tugaydi: benuqson bashorat"), to'qqizinchi bobi "*Tectonics, history and the end of the Cold War*", ("Tektoniklar, tarix va sovuq urushning tugashi"), o'ninchi bobi "*Great Illusions, the Long peace, and the future of the international system*" ("Buyuk ittifoq, uzoq tinchlik va xalqaro munosabatlar kelajagi"), o'n birinchi bobi "*Toward the Post Cold war world*" ("Sovuq urushdan keyingi dunyo sari tomon"), deb nomlangan.

Muallif SSSR va AQShning bir-biriga qarama-qarshi turishini tahlil etib quyidagilarni keltiradi. Sovet Ittifoqi mudofaa manfaatlarini o'ylab, Sharqiy Yevropa va Bolqonda o'zining ta'sir zonasini tashkil etdi. AQSh bo'lsa bundan xulosa chiqarib, G'arbiy Yevropada sovetlarga qarshi turish uchun o'zining ta'sir zonasini yaratdi. Bundan shuni ko'rish mumkinki «sovuq urush» boshlovchisi SSSR bo'lib qolayapti. Bu kabi fikrni R.Krokkatning yuqoridagi asarida ham uchratgan edik.

Ingliz xalqaro munosabatlarni o'rganish maktabi vakillari ham amerikaliklar yondashuviga xos fikrlarini aytishadi. Misol uchun diplomat va olim Robert Kuper

¹⁸ Gaddis John Lewis. O'sha asar. p.18.

«sovuq urush»ga shunday baho beradi: butun «sovuq urush» davomida bo'lgan urushlar va qarama-qarshiliklar asosida belgilangan tartib turgan. Bu tartib SSSR va AQSh hamda ularning ittifoqchilari o'rtasida unsiz kelishuv formasini oldi. Bularning ortida albatta yadro quroli turgan. «Sovuq urush»dagi janglar asosan targ'ibot, sotib olish va quporuvchilik harakatlari bilan olib borilgan. Davlatlar orasidagi asosiy nizolar ham «sovuq urush»ining asosiy strukturasidan tashqarida bo'lgan¹⁹.

«Sovuq urush» davrida Amerika – Sovet munosabatlari bo'yicha London iqtisodiyot maktabi professori O.A.Vestad o'zining «The global Cold war»²⁰ («Global Sovuq urush») kitobida yangicha qarashlarni va dalillarni keltirib utadi. Uning fikricha, urushdan keyingi qarama-qarshilik asosida AQSh va SSSRning modernizasiya konsepsiyalariga turlicha qarashlari yotgan deydi. Bundan tashqari Vestad qarama-qarshi davlatlarni (AQSh-SSSR) «uchinchi dunyoda»gi g'oyaviy kurashlariga alohida to'xtalib o'tadi. Muallif shuni ta'kidlab o'tadiki, rivojlanayotgan davlatlarning rivojlanish jarayoniga aynan ularning g'oyalari ta'sir etishi kerak edi. Shu o'rinda Vestad AQShni «uchinchi dunyoda» «kommunizm xavfiga» qarshi turishini ham aytib o'tadi. Vestadning ta'kidlashicha, bozorning roli AQSh tashqi siyosatini umumiy g'oyalarining asosiy qismini tashkil etgan. AQSh dunyoning iqtisodi rivojlangan davlatga aylanib, jahon iqtisodini o'z quliga olishga va kolonial tuzumdan ozod bo'lgan davlatlar iqtisodini amerika namunasi bo'yicha rivojlantirishni o'z zimmasiga olmoqchi edi.

Asarning birinchi bobi «The empire of liberty: American ideology and foreign interventions» («Ozodlik imperiyasi: Amerika mafkurasi va horijiy aralashuvlar»), ikkinchi bobi «The empire of justice: Soviet ideology and foreign interventions» («Adolat imperiyasi: Sovet mafkurasi va horijiy aralashuvlar»), uchinchi bobi «The revolutionaries: anticolonial politics and transformations» («Inqilobchilar: mustamlakaga qarshi siyosat va o'zgarishlar»), to'rtinchi bobi «Creating the Third World: the United States confronts revolution» («Uchinchi

¹⁹ Сетов Р.А. «Холодная война»: современные трактовки в теории международных отношений. // Вестник Московского университета. Сер. 8. История. 2008. №2. Стр.16

²⁰ Westad O. A. The Global Cold War. New York. 2005.

dunyoni yaratish: Inqilobga qarshi Qo'shma Shtatlar)), beshinchi bobi «The Cuban and Vietnamese challenges» («Kuba va Vetnam muammolari»), oltinchi bobi «The crisis of decolonization: Southern Africa» («Mustaqillik inqirozi: Janubiy Afrika»), yettinchi bobi «The prospects of socialism: Ethiopia and the Horn of Africa» («Sosializm istiqbollari: Efiopiya va Hom»), sakkizinchi bobi «The Islamist defiance: Iran and Afghanistan» («Islomiy bo'ysunmaslik: Eron va Afg'oniston»), to'qqizinchi bobi «The 1980.: the Reagan offensive» («1980 yillari: qonunsiz Reygan»), o'ninchi bobi «The Gorbachev withdrawal and the end of the Cold War»²¹ («Gorbachyov qayta qurishi va Sovuq urushning tugashi») deb nomlanadi.

Shunday qilib muallif AQSh siyosati va ideologiyasini erkin bozor, modernizasiya rivoji muammolari va ular tomonidan «kommunizm xavfiga» qarshi o'tkazilgan bir qator harbiy intervensiyalar bilan bog'laydi.

Vestad «uchinchi dunyo» mamlakatlaridagi sovet siyosatini analiz qilib, uni 3 etapga bo'ladi: komintern – Xitoyda kommunizm g'alabasi va Koreadagi urushga qaramay, Stalin diktaturasi davrida o'z rivojiga erisholmagan²²: Xrushev davri - bu davr SSSRni «uchinchi dunyo» davlatlariga ta'sirini kuchaytirish uchun kurash boshlagan davr bilan belgilanadi; va SSSRni 1970-1980-yillarda rivojlanayotgan davlatlarga keng ko'lamda kirib borish davri.

Vestad bundan tashqari o'z asarida «sovuq urush» ideologiyasini «uchinchi dunyo» davlatlariga ta'sirini ham aytib o'tadi. Uning fikricha, bu ideologiya fuqarolar urushining davom etishi va kollarial davrdan meros bo'lib qolgan nizolarni yana avj olishiga turtki bo'lgan.

Illinoys shtati universitetining professori Ye.Devis o'zining kitobida V.Vilson davridagi sovet-amerika munosabatlarini yoritib utgan. Muallifning aytishicha 1920 yil V.Vilson tomonidan Rossiyaga qarshi “tan olmaslik siyosati”ning olib borilishi birinchi “sovuq urush”ni boshlab bergan diydi. Ye.Devisning bu kitobda yozishicha aynan V.Vilson xukumatining siyosati (Rossiyaga qarshi intervensiya, demokratiya saqlanib qolgan yerlarda ularga yordam berish) 1917 yildan 1933

²¹ Westad O. A. The Global Cold War. New York. 2005.

²² Westad O. A. O'sha asar. p.49.

yilgacha davom etgan birinchi “sovuq urush”ni boshlab berdi deb yozadi. Shunday qilib 1946-1991 yillardagi “sovuq urush” uchun zamin tayorlanadi. Muallifning aytishicha 1940 yillarda qabul qilingan “kommunizimni tuxtatish” doktrinasini 1920 yil boshida qabul qilingan “tan olmaslik” doktrinasini bilan bir xil bulib, xar ikkalasi ham kommunizimni dunyo buylab tarqalishiga qarshi edi.²³

²³ Д.Э.Дэвис «Первая холодная война. Наследие Вудро Вилсона в советско-американских отношениях».